

CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH
JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 6-10.

- 11.М Кубаева Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o'rni // in Library 2021 (1), 102-105
12.М Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926

**TALABA-YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.**

**Ro‘ziyeva Nafosat Abdumumin qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи
o‘qituvchisi**

Annotasiya: Ushbu maqolada yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya va keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash xususida so‘z yuritilgan bo‘lib, talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasining muhim ijtimoy va pedagogik jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, talaba-yoshlari, ta‘lim-tarbiya, odob-axloq, ma’naviyat, ma’rifat, ilm-fan tafakkur.

**ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ КАК
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

Аннотация: В статье говорится о воспитании самоотверженной и патриотичной молодежи, обладающей высоким моральным духом, твердой жизненной позицией и широким кругозором, а также проводится анализ важных социально-педагогических аспектов нравственно-нравственного воспитания студенческой молодежи.

Ключевые слова: Высшее образование, студенческая молодежь, образование, нравственность, духовность, просвещение, научное мышление.

**SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AS A
PEDAGOGICAL PROBLEM**

Abstract: This article talks about educating selfless and patriotic young people with high morale, a firm life position and a broad outlook, and an analysis of the important social and pedagogical aspects of moral and moral education of students done

Key words: Higher education, student-youth, education, morals, spirituality, enlightenment, scientific thinking.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga

ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Zamonaviy ta’lim – bu shaxsning ijtimoiy, shuningdek, ta’limiy qadriyatlarga ongli munosabatda bo‘lishi, kasbiy, ijodiy, ma’naviy – axloqiy va shaxsning jismoniy imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilgan «innovatsion» ta’limdir. Shuning uchun ham bunday sharoitda oliv o‘quv yurtlarida ham yoshlarning ijtimoiy harakatiga ko‘proq e’tibor berish kerak. Chunki bugungi talaba ertaga oila rahbari yoki uning a’zosi bo‘ladi. Bugungi kunda talabalarni ta’limiy qadriyatlarga o‘rgatish orqali o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni ma’nan yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalash yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, har tomonlama ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishilaridan biri desak adashmagan bo‘lamiz. Bu ustuvor masala yuzasidan davlatimiz rahbariyati tomonidan ko’plab chora-tadbirlar amalgalash oshirilib kelinmoqda.

Xususan, talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san’at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha islohotlar o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham oliv ta’lim muassalari talaba-yoshlarining ma’naviy-axloqiy masalasi asosiy vazifa sifatida ko‘rsatilgan.

Jumladan, oliv ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalgalash oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etish;

- davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

- yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog‘lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

- talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo‘lida birlashtirish maqsadida ta’lim-tarbiyaning ta’sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e’tiborga olish va tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash;

- “Maktab — ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i” konsepsiysi doirasida oliy ta’lim muassasalarining umumta’lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish[1].

Ushbu dastur belgilab bergen vazifalar doirasida talaba-yoshlarda ma’naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida, oliy ta’lim muassasalari va bir qancha nodavlat ta’lim tashkilotlari hamkorligida “Kitobxon yoshlar”, “Qiz bala-millat kelajagi”, “Ma’rifat maydoni” kabi ko‘rik-tanlov hamda bir qancha o‘quv-amaliy semenarlar o‘tkazilmoqda.

Hozirgi kunda vatanga bo‘lgan sadoqat, burch va mas’uliyat, oilaga, ota-onaga bo‘lgan mehr-muhabbat, vafodorlik chin do’stlik tuyg‘ulari va boshqa fazilatlar yoshlarimiz ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketmoqda. Uning amaliy ifodasi esa ko‘zga ko‘rinmaydi. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlari va qiloyatgan amallari orasida tafovutni ko‘rishimiz mumkin. Buning natijasida har bir yigit va qizlarimiz mustaqil hayotga qadam qo‘yganda bir qancha muammolarga duch kelishlarining guvohi bo‘lmoqdamiz. Ayrim talaba-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, ta’lim olishga bo‘lgan intilishlari pastligi, irodasining sustligi, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda. Shuningdek, oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish, talaba-yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud. Ta’lim-tarbiya sohasidagi muammolarni bartaraf etishda hukumatimiz tamonidan bir-qator islohotlar amlga oshirildi va bu muammolar yechimining huquqiy asoslarini farmon hamda qarorlar bilan belgilab berdi. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydag‘i PQ4307-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2021- yil 26- martdagи “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori; 2023- yil 28-yanvar kuni O‘zbekiston Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni shular jumlasidandir.

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

- ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish;
- talaba-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallah, media madaniyatni rivojlantirish;
- kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni mustahkamlash, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish;
- faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;
- ilmiy, ma’naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog‘lom diniy e’tiqodni shakllantirish;
- ayrim talaba-yoshlarimizdagi loqaydlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etish;
- talabalarda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash;
- kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish[2].

Bugungi kunda Talaba-yoshlarni ma’naviy qadriyatlар ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo‘lib qoldi. Ma’naviyat tarkibidagi muhim bir qatlam – bu bilimlardir. Ma’naviyat bilimlar negizida shakllanadi. Ilmning mag‘zi bilimdir. Har bir insonda uning yoshlik chog‘ida olgan ma’naviy bilimlari darjasи keyinchalik unda shakllanadigan insoniy fazilatlari uchun poydevori bo‘ladi. Bizga ma’lumki, insonning ma’naviyati uning axloqi, odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Axloq esa aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o‘z navbatida inson axloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi.

Yoshlarning axloqiy tarbiyasi xususida so‘z yuritganimizda biz Avloniyining axloqiy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlariga to‘xtalamiz. Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki: dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o‘zları ilmlariga omil bo‘lub, shogirdlarga ham bergen darslarini amal ila choqushturub o‘rgatmklari lozimdur. Bu ravish ta’lim ila berilgan dars va ma’lumot shogirdlarning diliqa tez ta’sir qilub, mulloyi boamal bo‘lurlar.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallalohu alayhi vasallam afandimiz: Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmaydurgan kishilar”, -demishlar tarbiya qiluvchi muallim o‘zi olim bo‘lub amalsiz bo‘lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo‘rtasiri bo‘ladur”[4].

Demak, axloq insonning ijobjiy sifatlari majmuidir. Odob va axloq bir-biri bilan uzviy bog‘liqidir. Odob alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Odob – bu har bir insonning jamoa bilan bo‘lgan muloqotida hamda yurishturishida o‘zini tuta bilishini ko‘rsatadi.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan xulq odob normalari.

Madaniyat – jamiyatning unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to‘plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi.

Ma’naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy intellektual fazilatlar majmuasidir.

Mustaqil fikrlash – bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy-hayotiy bilimlar majmularining keragini saralab olish va amaliyotga qo‘llash.

Ta’lim muassasalarida ijodkor pedagoglar talaba-yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirishda ma’naviy qadriyatlarning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadilar. Pedagog ijodkorligi natijasida talaba-yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san’ati, an’analari va urf-odatlari haqida chuqr bilim oladi. Ularda boy tariximiz hamda ma’naviy merosimizga bo‘lgan qiziqish oshadi. Dars jarayonida samimiy, sog‘lom ma’naviy muhit yaratiladi. Ma’naviy meros manbalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning xulq madaniyati kamol topadi. Talaba-yoshlarda xulq madaniyati qanchalik yuksak bo‘lsa darsning samaradorligi hamda pedagog-talaba o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladi. Hamkorlikdagi faoliyat albatta o‘qituvchi va talabalardan ijodkorlikni, mas’uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunda har bir darsdan pedagog maqsadni aniq ko‘ra bilishi, amalgalashgan vazifalar tarbiyaviy xarakter jihatdan to‘g‘ri belgilab olinishi lozim.

Ta’lim muassasalarida dars jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning bir qancha metod va tamoyillaridan foydalanamiz. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda o‘quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishga ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg‘ularini va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullari yig’indisi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, o‘git, ko‘rsatma, namuna va boshqalar. Ma’naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o‘rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat va hokazolar. Ma’naviy-axloqiy motivatsiyani hosil qilishga doir metodlar: rag‘batlantirish, musobaqa tanbeh berish kabilalar.

Talabalarning ma’naviy –axloqiy hislatlarini o‘rganish jarayoni quyidagi pedagogik talablarga javob berishi lozim:

- ma’naviy –axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini o‘rganish, tahlil qilish tarbiya jarayoni tarkibiy qismi, o‘quv –tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi lozim;
- talabalarnima’naviy –axloqiy hislatlarini doim o‘zgarishda rivojlanishda deb o‘rganish;
- tarbiyalanganlik me’yorlarini aniqlash va shu asosda tahlil qilish;

- talabalarning ma'naviy -axloqiy tarbiyalanganliklarini o'rganishda unga ta'sir etuvchi barcha omil, vositalarni hisobga olish;
- ularning ma'naviy -axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajalarini alohida va jamoa bilan o'rganish lozim.

Demak, talabalarning ma'naviy -axloqiy jihatdan rivojlanishida uning ichki va tashqi qarama -qarshiliklarini anglab olish, uni yengishda oqilona usul va uslublardan foydalanish, bu jarayonda tarbiyalanuvchilarning ongli faoliyatidan foydalanish yetarli samarani beradi[3].

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy-axloqiy talablarga mos keluvchi, axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida talabalar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishi hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
- talabalarda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
- talabalarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Nafaqat ta'lim dargohida balki o'zbek oilalarida ham ming yillar davomida ajdoddlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan ma'naviy va axloqiy tarbiya usullari mavjud. Ana shu tajribalar talaba yoshlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi uchun bugungi kunda ham yetarlicha ibrat manbai bo'la oladi. Talaba ma'naviyat orqali – tabiat va jamiyat bilan bir butunlikka erishadi va uyg'unlashadi. Talabaning ma'naviy salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u jamiyatdagi barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning huquqiy yaratuvchisi, tarixning chinakam ijodkori hisoblanadi

Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoiylari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omili hisoblanadi. Safo Ochilov o'zbek xalqining boy ma'naviy merosiga e'tibor qaratib "Avesto" va "Qur'on" kitoblarida ma'naviy tarbiya manbaa ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari ma'naviy tarbiya tarixini o'rganish muhim didaktik ahamiyatga ega. AlXorazmiy (780-850), Imom Al-Buxoriy (810-870), Imom Al-Marvaziy (780-855), Imom At-Termiziyy (824-892), Abu Nasr Farobiyy (870-930), Abu Rayhon Beruniy (970-1084), Ibn Sino (980-1037), Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy (1044-1170), Az-Zamaxshariy (1070-1143), Najmuddin Kubro (1145-1221), Paxlavon Maxmud (12247-1326), Alisher Navoiy (1141-1501), Ogahiy (1809-1914) kabi buyuk allomalarimizni merosi to'liq ma'noda ma'naviyat manbai hisoblanadi. Shular qatorida XIX-XX asrlarda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar (Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat) ning bu boradagi qarashlari bugun ham o'zini mohiyatini yo'qotmagan, hatto, aytish mumkinki, yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash ishida metodologik asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda[3].

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiyani hech qachon bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi. Bu ikkala jarayon o'zaro uyg'un holda, uzlusiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shuningdek bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo'lgan, zamонавиъи kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar talaba-yoshlarni yetishtirib beradi. Ma'naviyat - insонning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, axloqi

hamda odobi, avlodlar tajribasi asosida ustoz va murabbiylar ota-onalar nazorati ostida shakllanib boradi. Shunday ekan biz pedagoglar ta'lim jarayonida tarbiyaning ham uzviyigini ta'minlagan holda talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish usul vasitalarini o'rgatib borishimiz va ularga to'g'ri yo'lni ko'rsata olishimiz zarurdir. Zero, Oliy ta'lim muassasasining bosh maqsadlaridan biri ham-talaba-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy, estetik, axloqiy dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini turli xil yot g'oyalalar ta'siridan himoya qilish hamda mustaqil O'zbekistonning chinakam fidoiy, vatanparvar shaxsi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari. 2023- yil 13-bet.
2. Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich, Mirzayeva Gavharoy Qosimjonovna talaba-yoshlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda zamonaviy uslublar mazmunijild. 21 №. 7 (2023): dunyoda ta'lim, fan va innovatsiya g'oyalari | Jurnalning 21-soni | 7-qism
3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI.KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI 2020-yil 23-sentabr.O'RQ-637-son
4. YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TALABA-YOSHLAR TARBIYASIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR F. O. Xodjiyeva Z. B. O'tapov
5. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. G. Niyozov, Q. Axmedov, Q. Tojiboyev O'zbekiston 2010 yil.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNATGA IJOBIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH.

**Mansurova Maftuna Komiljon qizi
O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrasi o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat tarbiyasini ta'limiy - tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qanday amalga oshirilishi haqida ma'lumotlar berilgan shu bilan birgalikda mehnat tarbiyasini oilada shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat tarbiyasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat, mehnat tarbiyasining maqsadi, oilada mehnat tarbiyasini amalga oshirish, kattalar mehnatini qadrlash.

ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ К ТРУДУ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА